

**YOSH ER-XOTINLARDA IRODA KUCHINING INTERNETGA TOBELIKDA
YUZAGA KELISHINING TA`SIRI**

Raxmonova Diyora Adxamovna

Alfraganus University magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixolog olimlar tomonidan oilaviy munosabatlarga oid tadqiqotlar berilgan. Ijtimoiy tarmoqlarni oila, oilaviy munosabatlar va bola psixologiyasi ta'siri ko'rsatilgan. Internet tarmoqlari bola tarbiyasi, ta'limi va ongiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *internet, oila, oilaviy munosabatlar, nizo, bola, tarbiya.*

Professor V. D. Mendelevichning so'zlariga ko'ra, bunday qaram yoki o'ziga qaram bo'lgan xatti-harakatlar, o'z manfaatlarining boshqa shaxs yoki guruh manfaatlariga haddan tashqari bo'y sunishi bilan tavsiflangan deviant xatti-harakatlarning bir turi; haddan tashqari qiymatga ega bo'lgan muayyan faoliyat yoki narsalarga (fetishlarga) e'tiborni haddan tashqari va uzoq muddatli mahkamlash; ushbu faoliyat turlariga o'z ishtirokini boshqarish qobiliyatining pasayishi yoki buzilishi; shuningdek, xulq-atvorni tanlashda mustaqil va erkin bo'lishning mumkin emasligidir.

I.I.Xasanova va S.S.Kotova tomonidan "Yoshlarda internetga tobeklikning xulqo og'ishganlik biln bog'liqligi mavzudago tadqiqotda o'rgangan. O'tqazilgan tadqiqot natijalari shu ko'rsatadiki yoshlarning xulqining og'ishishi ham internetga tobekni ko'rsatadi. Bora-bora yoshlarda jitimoylashishning o'rniga og'ishish yuzaga kelmoqda. Bu muammolar ham xozirgi kunning birinchi global muammolariga kirmoqda. Bizda va bizning yoz avlodimizda o'sishning o'rniga tubanlashish va o'z-o'zini anglamaslik xollari kuzatilmoqda. Oilada esa bunday tushunmovchiliklar yoshlarning yakuni fojiya bilan tugallashiga oilb kelishi mumkin.

Anastasiya Genedskayaning chop etgan maqolasida shini o'qidimki "Intarnetga tobek irodaviy kuchimi yoki psixologik kasallikmi" deb nomlangan edi. Bunda tadqiqotchi asosiy nuqtani tobekikka emas balikm shaxsning iroda kuchiga bog'liqligini aniqlashga qaratgan edi. Yosh oilalarda va o'sib kelayotgan yoshlarimizning ongida birinchi o'rinda internet tobekini ko'rishimiz mumkin. Bunda asosoiy masala bu internetga bog'lanmasligi uchun iridaning kuchi ham uning shaxsdagi kuchiga bog'liqligini aniqlashda katta muhim o'rin egallab kelmoqda.

A.E. Voyskunskiy va uning hammulliflari axborot texnologiyalarining shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini aniq ijobiy yoki salbiy deb tasniflash mumkin emasligini ta'kidlaydilar: internetga qaramlikda shaxsning salbiy o'zgarishi bilan bir qatorda, o'z-o'zini anglash va umuman motivatsion sohaning individual qobiliyatlarini ijobiy rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Oilada va maktabda qiyinchiliklarga duch kelgan, o'zidan va atrofdagilardan norozi bo'lgan yoshlar, ayniqsa, yaqinlari va do'stlarining qo'llab-quvvatlashi (yoki

nazorati) bo'limgan taqdirda, giyohvandlik yo'lida osonroq va tezroq bo'ladi. Internet orqali kompyuter o'yinlari yoshlarning ruhiyatiga eng salbiy ta'sir ko'rsatadi, u stressli, hissiy jihatdan beqaror bo'lib qoladi va tashvish hissi paydo bo'ladi. Bu axborot nevrozlariga, shizoid intoksikatsiyasiga olib keladi va psixikaga haddan tashqari yuklanish jiddiy g'ayritabiiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kompyuterda uzoq vaqt o'tkazish yoshlarning jismoniy holatiga ham ta'sir qiladi: u sport va jismoniy faoliyatga, dam olishga to'g'ri e'tibor berishni to'xtatadi, sog'lig'iga va ko'pincha ota-onalarning moddiy farovonligiga putur etkazadi. Har bir shaxs uchun zararli bo'lgan nafaqat porno saytlarga, balki pirotexnika, o'z joniga qasd qilish va ba'zi dorilarning ta'sirini muhokama qilishga bag'ishlangan suhbatlarga tashrif buyurishning nazoratsiz imkoniyati. Internet orqali onlayn do'stlar bilan muntazam muloqot qilish keyinchalik haqiqiy tanishuvga olib kelishi mumkin, shu jumladan deviant xatti-harakatlari bo'lgan shaxslar: radikal siyosiy guruqlar ishtirokchilari, mazhablar, jinsiy og'ishlarga ega bo'lganlar, giyohvand moddalar savdosi ishtirokchilari. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida noto'g'ri va ba'zan bila turib yolg'on ma'lumot olish. Voyaga etmaganning ongsizligida dunyo tartibining yo'qligi, masalan, dunyoda yaxshilik yo'qligi g'oyasi paydo bo'lishi mumkin. Internetda uzoq vaqt o'tkazadigan, haqiqiy dunyoga duch kelgan voyaga etmagan bola u bilan ziddiyatga tushishi mumkin, chunki kundalik hayotda ko'rgan narsalar ko'pincha uning ongsizligiga kiritilgan modelga mos kelmaydi.

Muhayyo Botirjon qizi Ubaydullayvna tomonidan chop etilgan "Iroda va uning shaxs xayotidagi axamiyati" mavzusidagi maqolada irodaning shaxs o'rtasidagi bog'liqlik va psixologik jarayonlar bilan bog'liqdur. Iroda nafaqat uni qo'llay bilish balkim undan kerak paytlarda to'g'ri foydalanish, to'xtatish lozimligini bizga anglashimiz uchun yordam beradi.

Ramziddin Ramazonovich Ashurov "Yoshlarda irodaviy sifatlarni shakillantirishning psixologik xususiyatlari" nomli maqolasida irodaning yoshlar xayotidagi o'rni va uning faydalari xaqida so'z yuritilgan. Iroda inson xayotidagi kichik ichki dvigatel xususiyati bilan faoliyat yuritadi. Irodaning maqsadi o'z xulq atvorini ongli ravishda boshqarish, maqsadga undovchi ichki kuch, tashqi va ichki qiyinchiliklarni engishdagi qiyinchiliklarni matonat bilan engib o'tishdagi psixologik jarayon sanaladi.

Yoshlarning irodaiy kuchi uning ijtimoiylashuvdagji faoliyatiga, mehnat ish tajribasi uni engib o'tishdagi ichki irodaviy sifatlari kiradi. Irodiviy sifatlariga qattiyatlilik, dadillik, tashabuskorlik, intizomlilik, tirishqoqlik, jasoratlilik va boshqalari kiradi. Irodaning inson xayotidagi o'rni uning qiyin marralardan sabir bilan o'tishdagi quroli sanaladi.

Internetga tobekida esa inson o'z iroda kuchini to'g'ri taqsimlashi va internet to'riga ilinmaslikni oildini oilish bo'yich o'zida kuch qudratni topishi orqali va ko'zlagan maqsadiga erishish uchun har doim sizga ichki xotirjamlikni bermaydi, siz bun o'ylab albatta oildinga intilishni va marraga tezroq etib olishni o'ylaysiz.

Lekin bu internet orqli insonning psixologik og`ishishlari yuzaga kelmasligi lozim bilardan esa oilalarda uchraydigan psixologik deprivatsiyalar va emotsiyal psixologik buzilishlarni kritishimiz mumkin. Inson har doim o`zining xatti harakatlari uchun javogar sanalgan, o`z qilmishlariga, taqiqqlarni buzishi natijasida o`zining tobelligida boshqalar aziyat chekmasligi lozim.

I.V.Selivanov o`g`oyalarida iroda psixologik jahatlarini yoritar ekan, insonni ongli xolatlar, jarayonlar, xislatlar sifatida mujassam etish mumkin. Inson bir vaqtning o`zida ham aqliy, irodaviy va xissiy jarayonlarni bajarishi mumkin.

A.V.Ivannikov esa irodani motivatsiyaning iztiyoriy aqliy shakli sifatida qaraydi. Insonda iroda ixtiyoriy boshqariluv shakli sifatida qaraladi, buni ixtiyoriy boshqarish motivatsiyasi deb xam qarash mumkin.

V.A Kurtetskiy tomonidan yaratilgan psixologik asarlarida iroda insoni sobitqadam, dadillik, qattillik deb tariflab o`tadi. M.P.Yakobson esa iroda mustaqillik, sabrqanoat, qatiylikkiradi deb tariflagan .

Ta'kidlash joizki, yosh er-xotinlarda internetga tobeklikning namoyon bo'lishiga shaxsdagi iroda kuchining ta'sir xususiyatlarini o'rganish tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan biridir. Xususan, yosh er-xotinlar shaxsida irodaviy sifatlarning shakllanganlik darajasi aynan internetga qaramlikning rivojlanishiga ta'sir darajasi nechog'lik ahamiyatli ekanligini aniqlash ko'zda tutilgan. Shu boisdan ham sinaluvchilar guruhlarida Kimberli Yangning «Internetga tobeklik» hamda R.S.Nemovning «Iroda kuchini aniqlash» metodikalari o'tkazildi. Mazkur metodikalarni sinaluvchilar guruhida subyektning o'z faoliyati davomida ongli ravishda o'zini o'zi boshqarishi, hayotiy maqsadlarga erishishdagi qiyinchiliklarni yenga olish sifatlarining internetga tobeklik namoyon bo'lishiga ta'sirini o'rganish imkonini beradi. Turmush qurbaniga 1 yildan 5 yilgacha va 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan oilalardagi er-xotinlar guruhida mazkur metodika o'tkazilib, olingan ma'lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, shuningdek, umumiyligi natijalarini ifodalash maqsadida -jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

Yosh oilalarda internetga tobeklik va iroda kuchi komponentlari

orasidagi aloqadorlik ($N=318$)

(Spirman korrelyatsiyasi mezoni bo'yicha)

Komponentlar	Sinaluvchilar	Internetga tobeklik
Iroda kuchi	1-5 yillik oilalar	-0,25**
	5-10 yillik oilalar	-0,40*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Metodika natijalariga ko'ra (1-jadval), turmush qurbaniga 1-5 yil bo'lgan oilalardagi yosh er-xotinlarda internetga tobeklik iroda kuchi ($r=-0,25$; $p \leq 0,01$) bilan manfiy bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Bundan shuni anglash mumkinki, sinaluvchilarda virtual olamga berilib qolishning yuzaga kelishiga irodaviy

xususiyatlар bevosita ta'sir o'tkazadi. Jumladan, ularda o'z xulq-atvorini mustaqil ravishda boshqarish, psixik jarayonlarni nazorat qilish, xatti-harakatlarini tartibga solish, hissiy-irodaviy fazilatlarni rivojlantirish kabi holatlar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, kompyuter va telefon tarmoqlaridagi turli saytlarga me'yordan ortiq tashrif buyurish singari psixologik muammolar kuzatilishiga to'siq bo'ladi. Aksincha, er-xotinlar shaxsida qat'iyatsizlik, dadil harakat qilishni istamaslik, jur'atsizlik, qabul qilingan qarorlarni tez-tez o'zgartirish kabi xususiyatlар internet olamiga tobeklik yuzaga kelishiga turtki bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, oilaviy hayot tajribasi 5-10 yil bo'lgan yosh er-xotinlarda internetga tobeklik iroda kuchi ($r=-0,40$; $p\leq0,05$) bilan o'zaro salbiy aloqadorlikni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Natijalardan shuni qayd etish joizki, yosh er-xotinlarda qaror qabul qilish jarayonidagi qiyinchiliklar, maqsadga erishishda uchraydigan ichki va tashqi to'siqlarni yengishdagi muammolar, o'z-o'zini nazorat qila olmaslik jihatlari internet tarmoqlariga nisbatan qaramlik, asosiy vaqtini turli mobil qurilmalardagi saytlarda o'tkazish kabi holatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, irodaviy sifatlarning kuchli namoyon bo'lishi, xulq-atvor va xatti-harakatlar uchun shaxsiy javobgarlikni o'z bo'yniga olish darajasining ortishi virtual olamga tobeklik, faoliyatni internetsiz tasavvur qila olmaslik singari omillarning sezilarli ravishda kamayishiga olib keladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, turmush qurbaniga 1 yildan 5 yilgacha va 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan oilalardagi er-xotinlarda iroda kuchining internetga tobeklik namoyon bo'lishiga ta'sir jarayoni o'rganib chiqilganda, shu narsa ayon bo'ldiki, har ikkala hodisa o'zaro salbiy bog'liqlikni tashkil etadi. Xusan, shaxsdagi qat'iyatlilik, matonatlilik sifatlari virtual olamga qaramlik paydo bo'lishining oldini oladi. Mazkur ko'rsatkichlar yosh er-xotinlarda internetga tobeklik yuzaga kelishiga shaxsdagi irodaviy xususiyatlarning shakllanganlik daroji bevosita ta'sir qilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асмолов А.Г. Психологическая модель Интернет-зависимости личности / А.Г. Асмолов, Н.А. Цветкова, А.В. Цветков // Мир психологии. - 2004. - № 1. - С. 179-192.
2. Белинская, Е.П. Взаимосвязь Интернет-зависимости и стратегий совладания с трудными жизненными ситуациями // Интернет-зависимость. Психологическая природа и динамика развития/под ред. АЕ Войскунского. М.: Акрополь. - 2009. -С. 188-199.
3. Войскунский А.Е. Мотивация потока и ее изучение в деятельности хакеров / А.Е. Войскунский, О.В. Смылова // Современная психология мотивации. - под ред. Д.А. Леонтьева. М.: Смысл, 2002. - С. 244-277.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-7 ISSUE-5 (30- May)

4. Егоров А.Ю. К вопросу о новых теоретических аспектах аддиктологии / А.Ю. Егоров; под. ред. В.Д. Менделевича // Наркология и аддиктология: сб. науч. тр. - Казань : Школа. - 2004. - С. 80-88.
5. Рыбалтович Д.Г. Психологические особенности пользователей онлайн-игр с различной степенью игровой аддикции : автореф. дис. ... канд. психол. наук / Рыбалтович Д.Г. - СПб., 2012. - 23 с.
6. Тарабрина Н. В. Практикум по психологии посттравматического стресса / Н.В. Тарабрина. - Практикум по психологии. - СПб: Питер. - 2001. — 272 с.
7. Урсу А.В. Компьютерная игровая зависимость: клиника, динамика и эпидемиология / А.В. Урсу, А.В. Худяков // Психич. здоровье. - 2009. - № 8. -С. 28-32.
8. Шевченко Ю.С. Бихевиорально. Когнитивная психотерапия детей с эмоциональными нарушениями. В кн.: Бихевиорально-когнитивная психотерапия детей и подростков / Ю.С. Шевченко, В.А. Корнеева. - Под общей ред. Ю.С. Шевченко. - СПб: Речь, 2003. - С. 266-288.
9. Hamburger Y.A., Ben-Artzi E. The relationship between extraversion and neuroticism and the different uses of the Internet // Computers in Human Behavior. - 2000. - Vol. 16, N 4. - P. 441-449.
10. Penard T. Does the Internet make people happier? / T. Penard, N. Poussing, R. Suire//J. of Socio-Economics. - 2013. - Vol. 46. - P. 105-116.